

JADIDLARNING TURKISTON O'LKASI TA'LIM SOHASIDA AMALGA OSHIRGAN ISLOHOTLARI.

Termiz Davlat Universiteti Tarix Fakulteti

302-guruh talabasi

Xursanov Javohir Kamoliddin o'g'li

“Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani ta’limdan ajratib bo’lmaydi. Bu sharqona qarash sharqona hayot falsafasidir.”

I.A.Karimov

Tayanch so'zlar: Jadid, renessans, Turkiston, Toshkent, Samarqand, Buxoro, usuli jadid, O'rta Osiyo, Boqchasaroy, usuli savtiya tadrijiya, “turkcha qoida”, ”Imlo”, dorilfunun, tarix, kimyo, handasa, ilmi buyuk, usuli idorayi davlat, Xiva, Tarjimon, Qur'on, Alifboyi Qur'oniy, tatar, turk, Deputat, universitet muallim, mudarris, Ko'mak, Ma'rifat, Jamiyati Xayriya, Bolalar Tarbiyasi, Fransiya, Angliya, Yaponiya, Farg'ona gazetasi

Tarixda “jadid” deb yangilik va islohotchilikga intiluvchi, yangilik yaratuvchi faoliyat bilan mashg'ul bo'lgan taraqqiyparvar, ilg'or ruhdagi ziyolilar ataldi. XIX asrning oxirlari va XX asr boshlarida Turkiston zaminidagi eng ilg'or ziyoli kishilar ongida paydo bo'lgan milliy uyg'onish ma'rifatchilikda yaqqol namoyon bo'ldi. Yangicha ma'rifatchilikning ilk jarchilari bo'lgan jadidlar keng miqyosli amaliy faoliyatlari bilan o'z g'oyalarining jamiyat hayotida mustahkamlanib barqror bo'lishi, oxir pirovardida milliy ozodlik, siyosiy mustaqillik kurashlariga o'sib o'tishi uchun zamin yarata boshladi. “Bu davr Turkistonda ijtimoiy-siyosiy tafakkuri rivojida yangi bosqich edi. Ana shu bosqichda yerli xalqning madaniy-ma'rifiy hayotida shu qadar o'zgarishlar sodir bo'ldiki, uni hech shubhasiz Renessans, ya'ni Uyg'onish davriga qiyoslash mumkin”

Madaniy-ma'rifiy islohotlarning ibtidosida, albatta, maktab-maorif ishlari turadi. Shu kezlari Toshkent, Samarqand, Buxoro va Farg'ona vodiysi shaharlarida o'nlab "usuli jadid" maktablari ochildi. Uning tashkilotchilari tatar ma'rifatchilari bilan birga, yerli ziyolilardan Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Siddiqiy Ajziy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ashurali Zohiriy, Abdurauf Fitrat, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Sadridin Ayniy, Abduhavob Ibodiy, Saidrizo Alizoda, Cho'lpon kabi o'nlab atoqli zotlar bo'ldi. Bu bobokalonlarimiz ta'lim tarbiya sohasida o'z fikrlarini bildirib, juda katta islohotlar amalga oshirdi. Xususan, Abdulla Avloniyning tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir, tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq axloqimizni kuchlantirmoq, zehnimizni rivojlantirmoq lozim degan fikrlari tarbiyaga berilgan eng chiroyli ta'rif desak mubolag'a bo'lmaydi.

Jadidchilar juda ko'p islohotlar amalga oshirdi. O'sha davr xalqi juda savodsiz edi. Shuning uchun jadid bobolarimiz dastlabki islohotni maorifdan ya'ni ta'limdan boshladi. Mashhur jadid Abdulvahob Ibodiyev o'zining maqolalarining birida ilm-fan taraqqiyoti haqida qimmatli fikrlar beradi, ilmsizlik oqibatidagi xalqning holati bayon etiladi: *«Ilm-sharaf va boyliklari (qo'llarida bo'lg'on tijorat va kasblari) boshqalarga o'tub, bellari tamom bukulub, ming xo'rlik bilan umr o'tkazmoqdalar...»*. Chor mustamlakasi davrida mazlum xalq vakili sifatida bu fikrni ochiq bayon etish, albatta, jasorat edi. Turkiston ahli boshiga yoqqan bu balolardan qutilishning yo'li - maorifni isloh qilish, asosiy e'tiborni ta'lim-tarbiya ishlariga qaratish, Orenburg, Qozon, Ufa kabi shaharlariga talabalar yuborish, qimmatlik boylar yordami ila maktab binolarini zamonaviy holga keltirish lozim ekanligini ta'kidlab o'tadi: *shundagina «...tez fursatda Turkistonimiz xalqining ilm va ma'rifat tobmoqlari tabiiydir»*, -deb, kelajakka umid bilan boqadi. Jadid bobolarimiz maktab ta'limi sohasida ham juda katta o'zgarishlar qildi. Ular Turkistonda juda ko'plab yangi jadid maktablari ya'ni "Yangi usul" maktablarini tashkil etdi. Maktab haqida Abdulla Avloniyning "–Maktab sizni tillo qilur-maktab sizni mullo qilur", "Hayot

yo'lida birinchi masala maktab masalasidir" degan fikrlari maktabdagi ta'limning naqadar ahamiyatli ekanligini bildirardi. Yangi usul maktablari — musulmon maktablarining ta'lim usuli va dasturlarini isloh qilib, bolalarga ona tilida xatsavod o'rgatgan va yangilik g'oyalarini ilgari surgan o'quv maskanlaridir. Yangi usul maktablarining kelib chiqishi Qrimlik Jadidchilik asoschisi Ismoil G'aspirali nomi bilan bog'liq. Dastlab Qrimning Boqchasaroy shahrida 1884-yil ma'rifatparvar Ismoilbek G'aspirali tomonidan tashkil etilgan va u "usuli savtiya tadrijiya" ("rivojlanuvchi tovush usuli") maktabi bo'lgan. 19-asr oxiri — 20-asr boshlarida Turkistonda tijorat va sanoatning rivojlanishi bu sohalarni boshqara oladigan shaxslarni yetishtirish ehtiyojini tug'dirdi. Ko'p asrlik maktabxonalar yoshlarga zarur dunyoviy bilim va ko'nikma bermas edi. Shuning uchun yangi usulda ta'lim beradigan maktablar ochila boshladi. Bu maktabalarning ochilish tarixiga turli xil kitoblarda turlicha tavsif berilgan. Mening fikrimcha, jadid maktablarining ochilib rivojlanishi quyidagicha edi: - 1893-yil Buxoro amiri Abdulahadxon ruxsati bilan Mo'minxo'ja Vobkendiy va g'ijduvonlik Domla Fozil sayi harakati ila dastlabki yangi usul maktabi ochildi. O'zbekiston hududida keyingi Yangi usul maktablari 1898-yil Qo'qonda Salohiddin domla va Samarqanddagi paxta zavodi huzurida tatar muallimlari tomonidan ochilgan (o'zbeklar bu davrda bunday maktablarni "no'g'oy maktab" deb atagan). 1900-yildan boshlab Toshkentda jadidchilik harakatining yirik namoyandasi Munavvarqori Abdurashidxonov, Samarqandda Abduqodir Shukuriy (Shakuriy) tashkil qilgan Yangi usul maktablarini ish boshlagan. Bunday maktablar Andijon va Namanganda, Xiva xonligida ham ochilgan. Lekin Dilnoza Kamolovanning doktorlik dissertatsiyasi aftoreferatida Turkistonda yangi usul maktablarining tashkil etilishi sal kechroq bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Unda ta'kidlanishicha, *"Abdulahadxon hukmronligi davrida Buxoro shahrida jadid maktablari vujudga kela boshlaydi. Dastlab Badriddin qozikalonning ruxsati bilan 1897-yilda Mulla Jo'raboy va 1907-yilda tatar ziyolisi Nizomiddin Sobitiy yangi usul maktablarini ochadilar. 1908-yilning oktyabrida esa Buxoro*

taraqqiyparvarlari Sadridin Ayniy va Abduvohid Munzim tomonidan xuddi shunday maktablar tashkil etiladi”².

Boshqa bir kitobda keltirilishicha, Ismoil G’aspirali g’oyalari Turkiston, Buxoro amirligi va Xiva xonligiga ham kirib kelgach, U 1893 yilda O’rta Osiyoga kelib, ilg’or ziyolilar bilan uchrashdi. Buxoro amiri huzurida bo’lib, bitta jadid maktabi ochishga rozilik oldi. Ana shundan keyin Turkiston ziyolilari jadidlar g’oyasini qo’llab maorifni isloh qilish, «usuli jadid» maktablarini ochishga kirishdilar. 1898 yilda Qo’qonda Salohiddin domla, 1899 yilda Andijonda Shamsiddin domla va 1903 yilda Toshkentda Mannon qori jadid maktablariga asos soldilar. “1909-yil Buxoro jadidlaridan Abulqosim Sayfullazoda (1873-1923) yangi usul maktabi ochadi. 1909-1910-yillarda faoliyat yuritgan ushbu maktabda 100-150 nafar o’quvchi tahsil olgan. Abulqosim maktabining o’ziga xos jihati shuki, u iste’dodli o’quvchilar bilan alohida shug’ullanib, muallimlikka tayyorlar edi. Ammo bu maktab ham tez orada yopib qo’yiladi. Biroq Abulqosim kechalari yashirin suratda xususiy uylarda bolalarni to’plab, o’qitishda davom etadi”

Temur Xo’ja Usmonjon o’g’lining kitobida *“Birinchii yangi usul maktabi birinchi bo’lib Husaynov mablag’I hisobiga 1893-yili Samarqandda, 1898-yili Qo’qonda Salohiddin Domla tomonidan, o’sha yili To’qmoqda, 1899-yilda eski Toshkentda Mannon Qori, Andijonda Shamsuddin domla tomonidan yangi usul maktablari ochildi .”*⁴ Jadidlarning yangi usul maktablari eski samarasiz maktabalardan farqi juda katta edi. Tojiddinbek Otabekov yozganidek: «...Eski zamon maktablari birlan usuli jadid maktabini farqi nihoyat darajada ma’lum va ravshan bo’ldi. Usuli jadid maktabi birlan eski zamon maktablarini bir joyga bormoq uchun otash aroba birlan piyoda odimga misol qilsak ham to’g’ridur...». Yangi usul maktablarida xatsavod bolalarning ona tilida tovush usuli — usuli savtiya o’rgatilgan. Maktablar asosan 1— 4sinf dan iborat boshlang’ich maktablar bo’lgan. 1913-14 o’quv yilidan ayrim joylarda 2 bosqichli tizim joriy qilina boshlandi. Bu tizimdagi maktablar namuna maktablari deb atalib, ularning 1-bosqichi tahziriy (boshlang’ich) sinflar, 2 bosqichi rushdiy (yuqori) sinflar deyilgan. Xususan,

M.Abdurashidxonovning namuna maktabi, A. Shukuriyning Samarqanddagi va A. Ibodiyev Qo‘qondagi maktabida rushdiy (yuqori) sinflar (5— 6sinf) ham ish boshlagan. Yangi usul maktablari uchun maxsus binolar qurilmagan. Ular xususiy bo‘lib, ko‘p hollarda maktab uchun muallimning o‘z uyidan yoki biron bo‘sh turar joy binolaridan hamda ba’zi shaxslarning tashqi hovlilaridan foydalanilgan. Chor hukumati amaldorlari bunday maktablar milliy madaniyatning o‘shishiga yordam berishidan cho‘chib, podsho hokimiyati uchun xatarli deb hisobladilar. Shuning uchun ularning faoliyatini bo‘g‘ib qo‘yadigan turli tadbirlar qo‘rildi. Xususan, 1911-yilda mahalliy millat maktablarida (rustuzem maktablaridan tashqari) o‘quvchilar qaysi millatdan bo‘lsa, muallimlar ham shu millatdan bo‘lishlari lozim degan qaror qabul qilindi. Shu qaror asosida tatar muallimlari ishdan bo‘shatilib, bir necha o‘nlab Yangi usul maktablari yopib qo‘yildi. Yangi usul maktablarining biron joyda rasmiy tasdiqlangan yagona o‘quv rejasi, dasturi bo‘lmagan. Darslar muayyan maktab rahbari va muallimlari tomonidan tuzilgan o‘quv rejasi va darsliklar asosida olib borilgan. Masalan, A. Shukuriy o‘z maktabining 1 va 2 bosqich sinflari uchun o‘quv dasturi va rejasini Behbudiy bilan birgalikda tuzgan. Yangi usul maktablarida dunyoviy fanlar bilan bir qatorda diniy darslar ham o‘qitilgan. Alifbe kitobi bilan "Alifboyi Qur’oniy" ham o‘rgatila boshlangan. Dunyoviy fanlardan fizika, kimyo, geometriya, arifmetika, geografiya, ayrim maktablarda 4sinfdan rus tili ham o‘qitilgan. Rus tilidan imtihonlar Toshkentdagi 2 bosqichli rustuzem maktabida o‘tkazilgan va o‘quvchilar bilimi 5 balli tizim asosida baholangan.

Yangi usul maktablarida yuqori sinflar uchun fizika, kimyo, geometriya kabi o‘quv fanlaridan o‘zbek tilida darslik, o‘quv qo‘llanmalari bo‘lmagan. Muallimlar bu fanlar bo‘yicha tatar, turk tillarida nashr qilingan qo‘llanmalardan foydalanishga majbur bo‘lganlar. Maktab ochgan jadidlar ko‘plab qo‘llanma va darsliklarni o‘zlari yaratdilar. “Saidrasul Saidazizovning “Ustodi avval”, Munavvarqori Abdurashidxonovning “Adibi avval”, “Adibi Soniy”, “Tajvid” (Qur’onni qiroat bilan uqish usuliga oid qo‘llanma), “Xavoyiji diniya” (Shariat konunlari tuplami) , “Yer yuzi”, “Usuli hisob”, “Tarixi anbiyo”, “Tarixi islom”, Abdulla Avloniyning

“Birinchi muallim” va “Ikkinchi muallim”, “Turkiy guliston yoxud axloq», Maxmudxo’ja Behbudiyning «Qisqacha umumiy geografiya”, “Bolalar maktubi”, “Islomning qisqacha tarixi”, “Amaliyoti islom”, “Aholi geografiyasiga kirish”, “Rossiyaning qisqacha geografiyasi” va boshlalar shular jumlasidandir”.

Yangi usul maktablarida may oyi oxirlarida ota-onalar va mehmonlar ishtirokida imtihonlar o‘tkazilgan. Imtihonda bolalar Qur’on suralarini yod aytishni, o‘zbek tilidan o‘qish va yozishni, hisobdan 4 amalni o‘rganganliklarini namoyish qilganlar. Yangi usul maktablarim. zamonaviy o‘zbek milliy maktablarining ilk bosqichi bo‘lgan. Bu maktablar tajribasi asosida faqat alifbe va o‘qish kitoblarigina emas, o‘zbek tilining qonunqoidalari yoritilgan "Turkcha qoida" va "Imlo" kabi dastlabki o‘quv qo‘llanmalari yaratilgan. Ta’limning bunday tashkil etilishi jadidlarimizning islohot rejalari asosida tuzib chiqilgan. Bu islohotlar natijasida o‘z tarixini yaxshi biladigan, xat savodli o‘sha davr zamon talabiga javob beradigan yoshlar chiqa boshladi. Jadidlarning yangi usul maktablari garchand juda katta qarshiliklarga uchragan bo‘lsada samarasini bermayn qolmadi. Bu o‘quv maskanlarida ko‘plab bolalar xat savodini chiqardi. Yangi usul maktablari tashkil etilmasdn avval, hudud aholising ko‘p qismi dunyoviy ilmda savodsiz ekanligi keltirib o‘tilgan. Ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra 1903-yilda birgina Toshkentda 20 ta (shundan 2 tasi o‘rta) jadid maktablari bo‘lgan. 1911-yil jadid maktablari Turkistonda 63 ta bo‘lib, ularda 4106 ta bola o‘qigan. Shu yili Toshkentning o‘zida 24 ta maktab bo‘lib 1740 ta bola o‘qigan. 1918-yilgacha O‘zbekiston hududida 104 Yangi usul maktablari bo‘lib, ularda 10343 bola o‘qigan. Bularning hammasiga jadid bobolarimizning maktab ta’limi sohasidagi islohotlari natijasida erishildi . Yangi usul maktablarim. 1918-19 o‘quv yilidan davlat maktablariga aylantirilib, xalq maktablari nomini olgan.

Jadid bobolarimizning asosiy maqsadlaridan biri Turkistonda Oliy O‘quv yurtlarini tashkil etish bo‘ldi . Oliy Ta’limga o‘qitishda ham islohotlar o‘tkazib o‘z jonbozlik- larini ko‘rsatdilar. Buning uchun oddindan ko‘p tayyorgarlik ishlari olib borildi.

Oliy ta'lim va universitet tashkil etish Turkistonda ilk bor rasman 1892-yildan boshlandi. Shu yili Ismoilbek Gaspirali Turkiston general-gubernatoriga maxsus maktub yozib, unda mavjud madrasalardan birini zamonaviy oliy ma'lumotli munajjimlar tayyorlashga moslashtirishni taklif etadi. Biroq bu amalga oshmaydi. I. Gaspirali esa bu bilan cheklanmay, 1906-yilda o'zining "Tarjimon" gazetasida to'g'idan-to'g'ri Buxoro amiri va Xiva xoniga murojaat qilib shunday deydi:

"Fuqaroyi islom sizlardan mol istamas, osh istamas. Din — «Qur'on»dan, jon — Xudodan. Siz davlatlik xonlardan solih ehson etiladigan narsa — nashri maorifga, taraqqiyot va kamolatga omil bo'luvchi oliy darajalik maorif maktablari. Ko'hna madrasalari ko'p Buxoroi sharifda va Xivada endi biror dorilfununi Islomiya ta'sis etmoq lozim. Bu dorilfununlarga bir daraja ilm olgan talaba qabul qilinib, tarix, kimyo, handasa, ilmi buyuk, usuli idorayi davlat, ilmi iqtisod va boshqa lozim fanlar, turkiy, forsiy, rusiy va fransaviy tillar Urgatilsa... Ushbu dorilfununlarda muallim va mudarrislik qila oladigan axdi kamol bor».

Jadidlar oliy talimning asosi — universitet tashkil etish uchun Toshkent shahar Dumasidan ham foydalandilar. Deputat Munavvarqori Abdurashidxonovning taklifi bilan Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev va Sodiq Abdusaporovlar Toshkent shahar Dumaning 1917-yil 21-oktyabrdagi majlisida universitet tashkil etish komissiyasiga kiritiladi va ularga universitet tashkil etishda musulmonlar manfaatini kimoya kilish zarurligi uqtiriladi. Umuman, jadidlarning juda_ ko'p sayi-harakati bilan 15-20 yil ichida butunlay yangi, ya'ni jadid xalq maorifi tizimi va uning uziga xos diniy dunyoviylikdan iborat ta'lim-tarbiya usullari to'la shakllanadi. Ular talabalarni o'qitishni moddiy rag'batlantirish maqsadida bir qancha jamiyatlar tuzdi. Bularga Buxoroda "Ma'rifat", Toshkentda "Ko'mak, 1909-yilda Munavvarqori tuzgan «Jamiyati hayriya», 1910-yilda Buxoroda mudarris Hoji Rafiy tuzgan «Bolalar tarbiyasi» hayriya jamiyatlarini misol qilishimiz mumkin. Xayriya jamiyatlari Yevropa, Afrika va Osiyoning bir qancha davlatlariga talabalarni o'qishga yubordi. Bunda dastlab G'arbiy Yevropaning Germaniya davlatiga yuborish boshlandi. Chunki o'sha paytda G'arbiy Yevropaning eng

rivojlangan davlati Germaniya edi. Nemis texnika va texnologiyasini o'rganish, tibbiyot, sohasini va siyosiy bilimlarni o'rganish asosiy maqsad edi. Bundan tashqari talabalar Misr, Turkiyaga va Ichki Rossiyaning Peterburg, Saratov, Qozon, Ufa, Orenburg shaharlaridagi oliy maktab va madrasalariga o'qishga yubordilar.

Keyinchalik shunday talabalar orasidan Fitrat, G'ozim Olim Yunusov, Xolid Said, Eson afandi Musayev kabi yozuvchi va olimlar, Mustaf Cho'qayev, Ubaydulla Xo'jayev, Norbo'tabekov kabi huquqshunoslar yetishib chiqdi. Ular yurtimizning yangi maorifi, madaniyati, ilm-fanini rivojlantirish va milliy istiqloqlga erishishi yo'lida faoliyat olib bordilar. Xususan, Ubaydullxo'ja Asadullaxo'jayev "Jamiyati xayriya" tomonidan chet elga o'qishga yuborildi va bitirib kelgach, Turkistonda birinchi advokat bo'ldi.

Sherali Turdiyevning kitobida yozilishicha, Germaniyaga yuborilgan talabalarning hammasi ham qaytib kelolmagan. "Abduvahob Murodiy, Solih uhammad, Sattor Jabbor, To'lagan Mo'min, Sulton Matqul, Basya Matqulova, Maryam Sultonmurodova, Xayrinisa Majidxonova, Gulsum Rahimova-Ashrafiy, Ruqiya Xo'jayeva, Nasriddin Sherahmedov, Fuzail Sherahmedov kabilar qaytib kelolgan bo'lsa, Tohir Chig'atoy, Ibrohim Yorqin, Abduvahob Is'hoq, Saida Sherahmedova, Ahmadjon Ibrohimov kabi talabalar turli sabablarga ko'ra qaytolmaganlar."⁷

Shuningdek, Buxoroda muddaris Hoji Rafiy va boshqalar «Bolalar tarbiyasi» hayriya jamiyatini tashkil etib, 1911- yilda 15 ta, 1912 yilda 30 ta talabani Turkiyaga o'qishga jo'natdi. Yana aytish joizki, O'rta Osiyolik talabalar Fransiya, Angliya va Yaponiyaga ham o'qishga yuborilgan. "Farg'ona" gazetasining 1923-yil 26-apreldagi sonida Rafiq ismli muallifning yozishicha, o'sha davrda Yevropada o'qigan talabalarimizning soni 500 dan kam bo'lmagan.

Qaytib kelgan talabalarning ko'pi juda ilmi kishilar bo'lib, ko'pchiligi keyinchalik qatag'on qurbonligiga mahkum etilgan. Qaytib kelolmagani ham chet el

universitetlarida o'qib,o'sha davlat rivojiga hissa qo'sha oladigan munosib kadrlar bo'lib yetishgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, jadidchi bobolarimizning ta'lim sohasidagi islohotlari Turkistonda ham dunyo talablariga mos keladigan kadrlarni tayyorlash bilan birgalikda, o'z vaqtida qoloqlik botqog'iga botgan xalqni ilm ma'rifatga boshlash bilan xizmat qilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib hozirgi fan rivojiga ham salmoqli hissasini qo'shgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Buxoro Amirligida jadidlar va qadimchilar faoliyati(XIX XX asr oxiri XX asr boshlarida)-dissertatsiya -Toshkent -2019
2. Do'st Marhum Sayfullazoda ||"Buxoroi Axbori" (Eski Buxoro), 1923-yil 7-aprel, - № 153
3. Temur Xo'ja Usmonjon o'g'li – Turkistonda jadid maktablari- “Hur Turkiston uchun”Anqara 1976-yil 15-may
4. R.H. Murtazoyev O'zbekiston Tarixi – “Yangi asr avlodi” Toshkent -2003
5. Sherali Turdiyev – Ular Germaniyada o'qigan edilar, Toshkent – 2006
6. Jadidchilik:Islohot,yangilanish,mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash – Davriy to'plam -№ 1,Toshkent “Universitet”- 1999
7. Bahrom Irzayev Turkiston jadidlarining “Ko'mak” tashkiloti – “Toshkent Islom Universiteti” nashriyat matbaa birlashmasi Toshkent-2016
8. O'zbekistonning Yangi Tarixi 1-kitob “Sharq” Nashriyat Matbaa konserni bosh tahririyati, Toshkent -2000